


# O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI

## 2018 yil fevral oyi uchun O`zbekiston Respublikasi iste`mol sektorida inflyatsiya darajasi

### Iste`mol narxlari indeksi (INI) va inflyatsiya darajasi


2018 yilning fevral oyida iste`mol bozorida tovar va xizmatlar o`rtacha 1,1 %ga oshdi, jumladan, oziq-ovqat mahsulotlari 1,1 %ga, nooziq-ovqat mahsulotlari 1,3 %ga va xizmatlar 0,7 %ga qimmatlashgan.

### O'zbekiston Respublikasida iste'mol narxlari indeksi (o'tgan oyga nisbatan, %)



2018 yil fevral va 2017 yil fevral oylari bo`yicha yig`ma ko`rsatkichga iste`mol narxlari o`zgarishi ta`siri quyidagicha:


### Oy uchun INI umumiy o'sishiga asosiy tovarlar va xizmatlar guruhlarining ta'siri



\*) foiz darajasida

Asosiy guruhlar narxlar o'zgarishining ta'siri ulushi hissasining ko'rsatkichlari quyidagi diagrammada keltirilgan:

### INI umumiy o'sishida tovar va xizmatlar narxlarining ta'sir ulushi




[Oziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi](#)

yuqorida ta'kidlanganidek, oziq-ovqat mahsulotlari oy davomida o'rtacha 1,1 %ga qimmatlashdi, bu esa INIning umumiy o'sishiga 0,49 f.d.da ta'sir ko'rsatdi.

## 2018 yil fevral oyida asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari indeksi

(o'tgan oyga nisbatan, %)



Озиқ-овқат маҳсулотларининг умумий ИНИ ўсишидаги таъсири - **0,49 ф.д.**

Fevral oyida tuxum o'rtacha 10,5 %ga, shakar 3,0 %ga, tovuq go'shti 1,3 %ga, qattiq pishloq va qandolat mahsulotlari 0,1 %ga arzonlashdi.

Kuzatuvdagi meva mahsulotlaridan ko`proq o`shish olmalarda 6,1 %, shuningdek quritilgan mevalarda 4,8 %. Qavoq bir oyda 10,0 %ga qimmatlashdi. Sabzavotlardan pomidor 14,0 %ga, bodring 11,7%ga o`tdi. Ayni paytda, sabzavotlar narxlarining umumiy oshishida kartoshka va piyoz narxlarining pasayishi kuzatildi (mos ravishda 2,7 % va 2,3 %).

2018 yilning fevral oyida respublika viloyatlarida ayrim oziq-ovqat mahsulotlarining o`rtacha narxlari orasidagi tafavut saqlanib qoldi:


Shunday qilib, joriy yilning fevral oyida mol go`shtining (suyaksizdan tashqari) o`rtacha 1 kg. uchun maksimal narxi 36967 so`mni (Toshkent sh.), minimal narxi 29725 so`mni (Qoraqalpog`iston Respublikasi) tashkil etdi. Suyaksiz mol go`shtining o`rtacha 1 kg. uchun maksimal narxi 44868 so`mni (Toshkent sh.), minimal 39000 so`mga (Qoraqalpog`iston Respublikasi) teng bo`ldi.

Viloyatlar orasida 1 kg. kartoshkaning maksimal va minimal o`rtacha narxlari o`rtasidagi farq 1,2 barobarni (Qoraqalpog`iston Respublikasi 3843 so`m, Jizzax viloyatida esa 3272 so`m) tashkil etdi.

O`nta tuxumning maksimal o`rtacha narxi 6655 so`m (Sirdaryo viloyati), minimal o`rtacha narxi 5500 so`mga (Andijon viloyati) to`g`ri keldi.


O`rtacha narxlar dinamikasining xususiyati 2017 yil yanvaridan to joriy yilning fevraliga qadar bo`lgan davrdagi mahsulotlarning turiga bog`liqdir. Misol uchun, mol go`shti narxlarining o`zgarishini barqaror o`shish tendentsiyasi bilan xarakterlanadi (2016 yil dekabriga nisbatan 1,4 barobar).

**O'zbekiston Respublikasida mol go'shti uchun narx indeksi dinamikasi (dekabr 2016=100)**




Boshqa mahsulotlar (masalan, mavsumiy sabzavotlar) uchun yil davomida narxlarning to'liqini o'zgarishi bilan tavsiflanadi.

**O'zbekiston Respublikasida piyoz, sabzi, kartoshka mahsulotlarining narx indeksi dinamikasi (dekabr 2016=100)**



Tovuq go'shti va shakar narxlarining o'zgarishi dinamikasi keyingi diagrammada keltirilgan:

## O'zbekiston Respublikasida tovuq go'shti va shakar mahsulotlarining narx indeksi dinamikasi (dekabr 2016=100)




## Nooziq-ovqat mahsulotlarining iste'mol narxlari indeksi

Nooziq-ovqat mahsulotlari narxlari oyda 1,3 %ga ko'tarilib, umumiy INIning o'sishiga 0,45 f.d.da o'z ta'sirini o'tkazdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlari guruhidagi narxlarning o'sishi quyidagi diagrammada aks ettirilgan:

(2018 yilning fevral oyi uchun usish darajasi, %)



Qurilish materiallari bo'yicha sezilarli darajada g'ishtning narxi 29,3 %ga, sement 8,4 %ga , shifer 5,9 %ga, yog'och mahsulotlari 3,3 %ga qimmatladi.

Nooziq-ovqat tovarlarning boshqa guruhlar narxlari o'sishi 0,4 %dan oshmadi, bu esa INIning o'sishi uchun sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmadi.

### Xizmatlar iste'mol narxlari indeksi

Aholi uchun xizmatlar oyda o'rtacha 0,7 %ga ko'tarildi. Bu esa INI umumiy o'sishiga 0,16 f.d.da ta'sir etdi.

2018 yil fevral oyi uchun asosiy turdagi xizmatlar tariflarining ko'tarilishi quyida aks ettirilgan:



**umumiy INI o'sishidagi ta'siri – 0,16 f.d.**

Kuzatiladigan aloqa xizmatidan "O'zbektelekom" AJ tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan aloqa xizmatlari tariflari ko'tarildi. Xususan, mahalliy telefon aloqasi uchun abonent to'lovi o'rtacha 27,7 %ga, shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlar o'rtacha 67,1 %ga oshirildi.

Yo`lovchi tashish xizmatlarining oshishi, asosan kuzatilayotgan yo`nalishlar bo`yicha shaharlararo yo`nalishda qatnaydigan poezdlarda chipta narxining o`rtacha 31,9 %ga hamda havo transporti xizmatlari o`rtacha 2,8 %ga ko`tarilishi bilan bog`liq.

**Narxlar statistikasi boshqarmasi**